

“O‘zbektelekom” AKning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati

*(“O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi
qarori bilan tasdiqlangan
(2022-yil 30-iyundagi 56-son bayonnoma)*

2026 - yil

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-419-son 2017-yil 3-yanvar)

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda “O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) ning ichki tartib qoidalarini va normativ hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

- ▶ Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) bilan Kompaniya rahbariyati o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi:
- ▶ *Kompaniyaning korporativ madaniyatini yanada takomillashtirish, Kompaniyada zamonaviy va shaffof korporativ boshqaruv tizimini joriy etish va rivojlantirish, shuningdek, mas’uliyatli biznes xatti-harakatlar standartlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;*
- ▶ *davlat, aksiyadorlar, mijozlar, hamkorlar va jamiyat oldida Kompaniyaning yuqori darajadagi biznes obro‘sinı saqlab qolish uchun Kompaniyada qonuniylik, oshkoralik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga sodiqligini ifoda etish;*

- ▶ *Kompaniya va/yoki uning xodimlariga nisbatan korrupsiyaviy holatlarning har qanday ko‘rinishini oldini olish, shuningdek, Kompaniyaning ishlab chiqarish, xo‘jalik va tijorat faoliyatini amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi milliy qonunchilik talablariga rioya etishga hamda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan prinsiplarni bayon etish;*
- ▶ *Kompaniyada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish;*
- ▶ *Kompaniyaning barcha faoliyat sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;*

- ▶ *Kompaniya xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;*
- ▶ *Kompaniya xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;*
- ▶ *korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlarini, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash.*

- ▶ Ushbu Siyosat Kompaniya, shu jumladan, boshqaruv organlari va/yoki a'zolari va xodimlar, shuningdek, Kompaniya nomidan va/yoki manfaatlarida faoliyat yurituvchi barcha uchinchi shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishning asosiy tamoyillari va talablarini belgilaydi.
- ▶ Ushbu Siyosatning talablari Kompaniyaning boshqaruv va nazorat organlariga va egallab turgan lavozimidan qat'i nazar barcha xodimlariga, shu jumladan, alohida tarkibiy tuzilmalari (filiallari)ga hamda affillangan shaxslariga nisbatan tatbiq etiladi.

Asosiy atamalar va ta'riflar

- ▶ ***korruptsiya*** - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;
- ▶ ***korruptsiyaviy xavf-xatar*** - Kompaniya xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan Kompaniya nomidan yoki ularning manfaatlari yo'lida korruptsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

► **korrupsiyaviy harakatlar** - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yoʻlida harakati yoki harakatsizligi uchun moddiy manfaatdor boʻlishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qogʻoz, boshqa koʻrinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun toʻlovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda oʻz xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

► **korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega boʻlgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

► **aloqador shaxslar** - Kompaniya xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar (aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega shaxslar bundan mustasno);

► **vakillar** - dilerlar (agentlar), maslahatchilar, shuningdek, Kompaniya nomidan va/yoki manfaatida faoliyat yuritadigan vositachilar va boshqa uchinchi shaxslarning barcha toifalari;

► **kontragent** - Kompaniya bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadigan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

► **mansabdor shaxs** - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

▶ **xodimlar** – (ushbu Siyosat maqsadlari uchun) - Kompaniya bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga asosan (egallab turgan lavozimidan qat'i nazar) mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi yoki mutaxassisni jalb qilish to'g'risidagi fuqarolik-huquqiy shartnomasi asosida xizmat ko'rsatuvchi shaxslar;

▶ **yaqin qarindoshlar** – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek, er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari;

► **manfaatlar to'qnashuvi** - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

► **mahalliychilik** – mahalliy manfatlarnigina ko'zlab ish tutish. Bunda, shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqei sababli, uning lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

► **nepotizm** - (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) - o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, Kompaniya manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar;

► **favoritizm** – Kompaniya xodimi boshqa shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va/yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, Kompaniyada kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish va davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga yuborish, murojaatlar, shuningdek, ish va navbatchilik jadvallarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik;

- ▶ ***urug'-aymoqchilik*** – Kompaniya xodimining avlod-ajdodlari bir bo'lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaaddorligi ;
- ▶ ***shafelik*** – Kompaniya xodimining lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab yonini olishi.

► Ushbu Siyosat quyidagi maqsadlarga erishish uchun amaliy muammolarni hal qiladi:


a) *Kompaniya rahbariyati, xodimlari va vakillariga korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilik talablariga rioya qilishning asosiy prinsiplari, shuningdek, korrupsiyaviy xatarlarni aniqlash, tahlil qilish va korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida Kompaniya tomonidan qo'llaniladigan chora-tadbirlar va tartib-taomillarni yetkazish va ular tomonidan ushbu talablarni bilishi va, albatta, ushbu Siyosatda belgilangan asosiy tamoyillarga amal qilish majburiyatlari to'g'risida ma'lumot berish;*

b) *korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro standartlar talablariga muvofiqlikning samarali tizimini ishlab chiqish va amalda joriy etishni ta'minlash hamda nazorat qilish bo'yicha Kompaniya rahbariyati hisoblangan mansabdor shaxslarning majburiyatini (burchini) belgilash;*

v) *Kompaniya, rahbariyat, xodimlar yoki vakillarning korrupsiyaviy faoliyatda ishtirokini minimallashtirish, istisno etish, oldini olish, shu jumladan, ularni jinoiy, ma'muriy yoki boshqa javobgarlikka tortish xavfini istisno etish yoki imkon qadar kamaytirish;*

g) *korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazorat tizimini, shu jumladan, zarur faoliyatining tegishli jarayonlarini va ularning o'zaro hamkorligini yaxshilash, hujjatlashtirish, amalga oshirish, qo'llab-quvvatlash va doimiy tahlil qilish, shuningdek, zarur hollarda ushbu tizimning zaif yo'nalishlarini takomillashtirish;*

d) *korrupsiyaning har qanday shaklda va ko'rinishda oldini olishga qaratilgan Kompaniyaning siyosati bo'yicha Kompaniya xodimlari va vakillarida bir xil tushunchani shakllantirish;*



e) *Kompaniyaning xaridlar faoliyatini, moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash, shuningdek, uning aktivlaridan qonuniy va samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish;*

j) *korruptsiyaga qarshi kurashish komplaens-nazorat tizimining xavflarini aniqlash va baholash, oldini olish, ta'sir ko'rsatish va korruptsiyaviy omillarga qarshi aniq choralar ko'rish, shuningdek, Kompaniya faoliyatining jarayonlariga ushbu tizim talablari integratsiyasini amalda ta'minlash;*

z) *Kompaniyada korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va litsenziyalangan dasturiy ta'minotlardan foydalanish.*

Siyosatning prinsiplari

- ▶ Kompaniya korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari va barcha turdagi biznes munosabatlarida axloqiy xatti-harakatlarga rioya qilish tamoyillariga amal qiladi. Ushbu Siyosatning qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplari va talablari
- ▶ Kompaniya rahbariyatiga va barcha xodimlariga, shuningdek, Kompaniya nomidan va/yoki manfaatida faoliyat yurituvchi har qanday uchinchi tomonga quyidagilar **taqiqlanadi**:

a) o'ziga yuklatilgan vazifalarini barajirishga yoki harakatsizligiga ta'sir ko'rsatish (harakatsizlikni ta'minlash) yoki o'z vazifalarini noto'g'ri bajarish va/yoki noto'g'ri tijorat afzallikka/ustunlikka erishish, shuningdek, har qanday moliyaviy yoki boshqa foyda olish uchun muayyan mansabdor shaxsga, hokimiyat vakiliga yoki muayyan tijorat tashkilotining har qanday vakiliga pul mablag'lari yoki boshqa qimmatbaho narsalar, shu jumladan, sovg'alar, biron-bir xarajatlarni qoplash, chegirmalar, o'yinlar, boshqa ko'ngilochar tadbirlarni va h. k. berish, rag'batlantirish, taklif qilish, va'da qilish, bunga, ruxsat berish yoki ularni amalga oshirish;

b) agar quyidagi to'lovlar, manfaat yoki imtiyozlar o'z-o'zidan olingan bo'lsa, rasmiy yoki boshqa majburiyatlarni noto'g'ri bajarish yoki bunday majburiyatlarni noto'g'ri bajarish uchun mukofot bo'lsa, pul mablag'lari yoki boshqa har qanday moddiy/nomoddiy qimmatliklarni, shu jumladan, har qanday moliyaviy yoki boshqa foyda yoxud afzallik/ustunlik shaklida yoxud har qanday shakldagi pora tariqasida va porani anglatuvchi to'lovlarni qabul qilish yoki qabul qilishga rozilik bildirish.

Kompaniya rahbariyati tarkibiga kiruvchi mansabdor shaxslari o'z xulq-atvori bilan shaxsiy namuna sifatida, barcha xodimlarning korporativ madaniyatining ajralmas qismi va xodimlarning kundalik biznesni yuritish amaliyotiga aylanishi kerak bo'lgan korrupsiyaning har qanday shakli va ko'rinishiga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish hamda boshqarish, axloqiy xatti-harakatlar standartini belgilashi kerak.

Kompaniya yuqori boshqaruv organi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va unga rioya qilish uchun to'liq javobgar bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari barcha xodimlar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Shartnoma siyosati

- ▶ Kompaniya o‘z nomidan yoki uning manfaatlarida uchinchi shaxslarning (keyingi o‘rinlarda - kontragentlar) har qanday toifalari bilan tuzilgan shartnomaning asosiy matniga kiritilmagan, yozma yoki og‘zaki bitimlar va shunga mos ravishda Kompaniyada qabul qilingan shartnoma tuzish va xaridlarni amalga oshirish tartib-taomillaridan o‘tmagan yoki mos kelmaydigan har qanday shartnoma bitimlarini tuzishni taqiqlaydi.
- ▶ Kontragent bilan tuzilgan har qanday shartnoma yozma shaklda, shu jumladan, uning ajralmas qismi bo‘lgan barcha ilovalari, bunday shartnoma tuziladigan shartlar va kelishuvlarning to‘liqligini o‘z ichiga olishi kerak.

- ▶ Korrupsiyaga qarshi kurashish ogohnomasi/shartlari.
- ▶ O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimining shartlarini tartibga soluvchi xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash, shuningdek, Kompaniyaning korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilish xavfini kamaytirish yoki oldini olish maqsadida (agar Kompaniya va kontragent o‘rtasida shartnomaviy munosabatlar o‘rnatilsa va ushbu munosabatlar korrupsiyaviy xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lsa yoki bunday xulosaga kelinsa) Kompaniya tomonidan har qanday kontragent bilan tuziladigan shartnomada korrupsiyaga qarshi kurashish haqida ogohnoma/shartlar belgilangan bo‘lishi shart.

Kontragentlarni tekshirish

- ▶ Kompaniya jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan biznes, mehnat va boshqa munosabatlarni oʻrnatishda, korrupsiyaviy faoliyatga jalb qilish xavfini kamaytirish yoki oldini olish maqsadida oqilona va boshqa zaruriy harakatlarni amalga oshiradi.

Sovgʻalar va vakillik xarajatlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq, Kompaniyada yoki uning nomidan ishlaydigan xodimlar boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun yoki Kompaniya xodimlarining faoliyati bilan bogʻliq ravishda boshqa shaxslar va tashkilotlardan olishlari mumkin boʻlgan sovgʻalar, shuningdek, vakillik xarajatlari yoki biznes-mehmondoʻstlik xarajatlari (keyingi oʻrinlarda - xarajatlar), muayyan holatlarda qonunga hilof deb baholanishi/talqin qilinishi (malakalanishi) mumkin.

Korrupsiyaviy holatlar haqidagi murojaatlar

- ▶ Kompaniya xodimlari yoki mijozlari, Kompaniya vakillari yoxud uchinchi shaxslar (shu jumladan, kontragentlar) tomonidan ushbu Siyosat va/yoki korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlarini buzish holatlari yoki ularni bunday harakatlarni sodir etishga undash haqidagi holatlar va/yoki bunga ishora qiluvchi boshqa belgilari haqida ma'lum bo'lib qolganda, Kompaniya xodimlari yoki Kompaniyaning vakili yoxud uchinchi shaxslar (shu jumladan, kontragentlar, quyidagi usullardan biri orqali Kompaniya rahbariyati yoki Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasini xabardor qilishlari shart:
- ▶ a) to'g'ridan-to'g'ri rahbarga yoki agar bunday xabar rahbarning harakatlariga taalluqli bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri yuqori turuvchi rahbariyatga yoki Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi a'zosiga yoxud korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo'yicha mas'ul tarkibiy bo'linmasi rahbari yoki xodimlariga;

- ▶ b) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo'yicha mas'ul bo'linmaning elektron pochta manziliga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish: **antikorrupsiya@uztelecom.uz;**
- ▶ v) Kompaniyaning belgilangan ishonch telefoniga **(+998 55 501 77 87)**.
- ▶ g) Kompaniyaga **og'zaki (shaxsan) yoki yozma** murojaat qilish.

- ▶ Rahbariyat kompaniyada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonuniy hujjatlari buzilganligi haqida vijdonan, jumladan, konfidentsialligini saqlagan holda berilgan xabarlarni qo'llab-quvvatlaydi va quyidagi holatlar uchun jazo, kamsitish yoki intizomiy jazo choralari (chetlashtirish, taxdid, lavozimini pasaytirish, lavozimga ko'tarilishning oldini olish, boshqa joyga ko'chirish, ishdan bo'shatish, qo'rqitish va ta'qib qilish yoki repressiya shakllari) qo'llanilmasligini ta'minlash majburiyatini zimmasiga oladi.
- ▶ Kompaniya o'z vakolatlari doirasida, ushbu Siyosat va/yoki korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari buzilganligi haqida vijdonan, jumladan, konfidentsialligini saqlagan holda xabar bergan xodimlarni, uchinchi shaxslar tomonidan (shu jumladan, bunday xabarda ko'rsatilgan shaxs tomonidan) ta'qib qilinishi yoki kamsitilishining har qanday shaklidan himoya qilishni o'z zimmasiga oladi.

Javobgarlik

Har bir asoslantirilgan gumon yoki korrupsiyaviy holat/huquqbuzarlik yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tekshiruvlarni boshlash va o'tkazish tartibini belgilovchi Kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlari asosida ichki o'rganish/tekshirish o'tkaziladi.

Siyosat ijrosi

Kompaniya tizimida korrupsiyaga qarshi komplaens-nazorat tizimini ishlab chiqish va joriy etish, amalga oshirish, doimiy takomillashtirish va monitoring qilish uchun Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo'yicha tarkibiy bo'linmasi mas'ul hisoblanadi.

- ▶ Kompaniya rahbariyati va Kompaniyaning Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat tizimning mazmuni va samaradorligi, shuningdek, Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo'yicha tarkibiy bo'linmasining tegishli nazorat jarayonlarini amalga oshirishi va ularning funksional vakolati bajarilishini ta'minlash uchun javobgardir.

- ▶ Kompaniya rahbariyati va xodimlari, ushbu Siyosat va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlarining prinsiplari va talablariga, shuningdek, ularning bo'ysunuvida bo'lgan shaxslarning ushbu prinsip va talablarni buzayotgan harakatlari (harakatsizligi) uchun shaxsan javobgar bo'ladilar.

Axborot manbalari

Kompaniya xodimlari, ish faoliyati davomida ushbu Siyosatning mazmuni va mohiyati yuzasidan, shu jumladan, Siyosat qoidalarini qo'llanilishi (talqin qilinishi), o'z harakatlarining qonuniyligi yoki odob-ahloq normalariga mos kelishiga shubhalanganda, ushbu Siyosatda belgilangan prinsiplar va komplayens-nazorat jarayonlarini qo'llash va amalga oshirish yoki muayyan vaziyatlarda yoxud Kompaniyaning biznes jarayonlarida bunday prinsiplar va tartiblarning qo'llanilishi masalalari yuzasidan savollari bo'yicha maslahat va tushuntirishlar olish uchun ushbu xodim to'g'ridan-to'g'ri Kompaniyaning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo'yicha tarkibiy bo'linmasi rahbari yoki mas'ul xodimiga murojaat qilishi mumkin.



E'tiboringiz uchun Rahmat!

Komplaens departamenti